

GOSPITAL PEDAGOGIKANI KICHIK GURUHLARDA YOKI INDIVIDUAL TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI

Sadinova Shaxzoda

Pedagogika va psixologiya fakulteti Logopediya yo'nalishi
510 -23 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15093283>

Annotatsiya: Gospital pedagogika - uzoq muddatli yoki surunkali kasalliklar sababli shifoxonada yoki uyda davolanishga majbur bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus ta'lim tizimidir. Ushbu pedagogikaning kichik guruhlarda yoki individual tarzda tashkil etilishi har bir bolaning ehtiyojlariga mos ravishda yondashishni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim texnologiyalari, jumladan, masofaviy ta'lim, interfaol metodlar va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot gospital pedagogikasining samarali usullarini ko'rib chiqadi va uning bolalar rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Gospital pedagogika, individual ta'lim, kichik guruhlar, ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, inkluziv ta'lim.

Аннотация: Госпитальная педагогика – это специальная система образования, предназначенная для детей, вынужденных проходить длительное лечение в больнице или на дому из-за хронических заболеваний. Организация обучения в малых группах или индивидуально требует персонализированного подхода, учитывающего особенности каждого ребенка. Важную роль играют образовательные технологии, такие как дистанционное обучение, интерактивные методы и психолого-педагогическая поддержка. В данном исследовании рассматриваются эффективные методы госпитальной педагогики и их влияние на развитие детей.

Ключевые слова: Госпитальная педагогика, индивидуальное обучение, малые группы, образовательные технологии, дистанционное обучение, психолого-педагогическая поддержка, инклюзивное образование.

Annotation: Hospital pedagogy is a specialized educational system designed for children who require long-term treatment in hospitals or at home due to chronic illnesses. Organizing education in small groups or individually requires a personalized approach tailored to each child's needs. Educational technologies such as distance learning, interactive methods, and psychological-pedagogical support play a crucial role. This study examines effective methods of hospital pedagogy and analyzes their impact on children's development.

Keywords: Hospital pedagogy, individual education, small groups, educational technologies, distance learning, psychological-pedagogical support, inclusive education.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etadi. Ana shunday keng ko'lamli islohotlardan biri 2022yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridir. Qarorga muvofiq bugun yurtimizda "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi tashkil etilib, o'z faoliyatini olib bormoqda.

Gospital ta'lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarning alohida toifasiga

— uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Pedagogikaning ushbu yo'nalishini amalga oshirish va rivojlantirishning murakkabligi idoralararo mansubligi bilan belgilanadi: ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya,

— chunki kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bola birinchi navbatda bemor, ikkinchidan

— o'quvchi. Bolani davolash jarayonida tibbiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirish keng qamrovli reabilitatsiyani anglatadi.

Davolanish bilan birga ta'limga qaytish onkologik kasalligiga chalingan bola uchun ijobiy taassurot qoldirishi mumkin, ammo shu bilan birga u sinfdoshlari orasida yo'qligi, tengdoshlari bilan muloqotning uzilishi, davolanishning nojo'ya ta'sirlari, zaiflik bilan kurashish zarurati kabi qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Bolaga onkologik kasallik tashxisi qo'yilganda, uning eng yaqin qarindoshlari moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular jismoniy, ruhiy salomatlik va farovonlik nuqtai nazaridan hayot sifatini pasaytiradi va ijtimoiy o'zaro ta'sirni yomonlashtiradi. Shuning uchun, gospital ta'lim onkologik kasalligiga chalingan bolalarningva ularning yaqin qarindoshlarini ruhiy va emosional holatini yaxshilash, qo'llab-quvvatlashi uchun xizmat qiladi. Gospital ta'lim o'quvchilarining yuksak ma'naviyatli, barkamol avlod etib tarbiyalash, o'quvchilarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi. Gospital ta'limning boshlang'ich sinf darslarida bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, gospital ta'lim o'quvchisini umumiy holatidan kelib chiqqan holda o'qish, bilim olishga ishtiyoqini o'stirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish zarur. Mehrli maktabda Markazda davolanayotgan bolalar uchun alohida ishlab chiqilgan o'quv reja asosida 1–11-sinflar hajmida umumiy o'rta ta'lim beriladi. Dars mashg'ulotining davomiyligi boshlang'ich ta'lim: 1–4 sinflarida – 35 daqiqani tashkil etadi. Bunda bir kunlik dars mashg'ulotlari 3 soatdan bo'lib, o'quv haftasi davomiyligi esa 5 kunlik asosida olib boriladi. Darslar o'quvchining umumiy holatidan kelib chiqib, yakka(individula) tartibda yoki guruh(sinf)da tashkil qilinadi

Boshlang'ich 1 sinflarda 1- yarim yillikda Alifbe,yozuv, matematika, tabiiy fan va ingliz tili, 2-yarim yillikda esa Ona tili va o'qish savodxonligi matematika, tabiiy fan, rus tili hamda ingliz tili fanlari o'tiladi.

2-3-sinflarda ham Ona tili va o'qish savodxonligi matematika, tabiiy fan, rus tili hamda ingliz tili fanlari o'tiladi.

4-sinflarda esa Ona tili, Matematika, Rus tili Ingliz tili va Tabiatshunoslik fanlari o'tiladi. Darsning rejasi har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan holda, individual tarzda tuziladi. Baholashda birinchi o'ringa o'quvchining umumiy holati, shaxsiy sifatleri, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlar hisobga olinadi. Qayd etilgan barcha sifat va kompetensiyalar akademik bilimlar bilan birga baholanadi. Dars – hozirgi zamon o'quv –

tarbiya jarayonida ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun javob berish kerak. Dars – yaxlit tizim, uning tuzilish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar, mazmun, shakl, uslub va vazifalari yuzaga chiqadi. Yaxlit tizimni tuzish uchun o'qituvchi darsni rejalashtirish, unga yaxshi tayyorgarlik ko'rish kerak. Boshlang'ich sinflarda darslar kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'limtarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bolalarni savodga o'rgatishda tahlil-tarkib qilishga undovchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengaytiriladi. Fikrlash jarayonida o'quvchilar tafakkur yuritish orqali qator mantiqiy amallarni bajaradilar. Boshlang'ich ta'limning savod o'rgatish bosqichi yakunlangach ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchil davom etadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, nutq so'zlash, yozish va grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Matematika esa o'quvchining aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan masadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlikka o'rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovasiyalarga chorlaydi hamda tafakkurini kengaytiradi. Inson dunyo qarashining tabiiy-ilmiy asosini tabiat haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Yosh o'quvchilar atrof-olam tog'risidagi dastlabki bilimlarni angelayotganda hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan bilimlar hajmini his qiladilar. Fanlarni birlashtirish bu muammoni hal qilishga imkon beradi. O'qitishda integrasiyalashgan yondashuvni amalga oshirish natijasida olingan yaxlit bilimlar o'quvchilar ularni o'quv jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, umumta'lim maktab bitiruvchisi bo'lganida hamda ijtimoiy hayoti davomida qo'llashiga yordam beradi.

Olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o'zaro bog'lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi. Fanlarni o'zaro bog'lab, olamda sodir bo'layotgan turli hodisa va jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshi dan anglashda "Tabiiy fanlar" darsligi o'quv chiga katta yordam beradi. Endilikda umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarga integrasiyalashgan ta'lim berish amaliyotga joriy etilmoqda. Integrasiyaning o'zi maqsad emas, balki o'qituvchi faoliyatining ma'lum bir tizimi bo'lgani uchun u muayyan o'quv muammolarini hal qiladi. Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi – olamning ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurni yaratish; bilimning ilmiy usulini o'zlashtirish va uni zamonaviy inson qadriyatlari tizimiga kiritishdir. Umuman olganda, dars o'quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli, bilim olishga chorlaydigan bo'lishi kerak. O'quv muassasining eng yomon ahvoli – bu o'quvchining o'qishga nisbatan yo'qotilgan qiziqishi, intilishi. Buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ta'qidlaganidek, «o'quv jarayoni va oddiy va yoqimli bo'lishi shart». Demak, bu talablarni bajarish uchun o'qituvchi o'z ustida ko'p ishlashi zarur.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamiyat hayotini o'yin orqali anglaydilar. O'yin vaziyatlari ularga ortiqcha tushuntirish va nasihatlersiz xulq-atvor qoidalarini amaliy jihatdan oson, maroqli tarzda o'rganishga yordam beradi. Shundan kelib chiqib, Mehrli maktabda darslarni turli

xil ta'limiy o'yinlar va metodlardan foydalangan holda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'rningni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" myetodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalrning 10tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalari haqida so'zlab bergan. Mazkur tadqiqot ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hvyotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. Shunday ekan, gospital maktab o'quvchilariga mukammal emas, hayotdan xursand pedagog kerak. Aynan shunday pedagoglar ularni zavq bilan maktabga kelishga va ishtiyoq bilan bilim olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.–T.: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. //Oliy ta'lim me'yoriy hujjatalari. – T.: Sharq, 2001. -BB.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi 234-son qarori
4. Milliy o'qiv dasturi
5. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent-2021
6. Matematika 2-sinf O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent-2021
7. Tabiiy fanlar 2-sinf O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent-2021